

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliyev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
N.A.Akbarova	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari	445
A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 37.04:364-053.6

YOSHLARNI IJTIMOYIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI
СИСТЕМА СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ МОЛОДЕЖИ
SOCIAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT SYSTEM FOR YOUTH

Abdullayev Sobirjon Soxib o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Obidova Dilnozaxon Mirzamo'min qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati masalalari, yoshlar ijtimoiy tashabbuslarini pedagogika imkoniyatlari xususida so'z yuritilgan. Bundan tashqari mazkur maqolada pedagogika sohasiga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о вопросах государственной политики в отношении молодежи, реализуемой нашей страной, педагогических возможностях молодежных социальных инициатив. Кроме того, в этой статье также представлена информация об исследованиях в области педагогики.

Abstract

This article talks about the issues of state policy regarding youth implemented by our country, pedagogical possibilities of youth social initiatives. In addition, this article also provides information about researches in the field of pedagogy.

Kalit so'zlar. Pedagogika, ijtimoiy harakat, ta'lim, madaniyat, san'at, oliy ta'lim, Konstitutsiya, davlat, yoshlar, davr.

Ключевые слова. Педагогика, общественное движение, образование, культура, искусство, высшее образование, Конституция, государство, молодежь, эпоха.

Key words. Pedagogy, social movement, education, culture, art, higher education, Constitution, state, youth, era.

KIRISH

Ma'lumki, har qanday davlat va jamiyatning istiqbolli sivilizatsiyasi uning ta'lim-tarbiya maqomiga, yangicha ta'lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma'rifiy madaniyatiga bog'liq. Zotan, yuksak ta'lim-tarbiya darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta'minlaydigan, jahondagi nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini keng yoyish, yurtni rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodni yetuk kadrlar, malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonda qurilayotgan fuqarolik jamiyati, hayotimizga kirib kelayotgan modernizatsiya jarayonlari va islohotlar samarasi eng avvalo yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda yoshlarga mamlakatning kelajagi sifatida e'tibor berilib, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning kelajakka bo'lgan ishonchi, bilim olishga, kasb o'rganishga bo'lgan huquqlarini yanada mustahkamlash, o'qitish va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tubdan takomillashtirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda yangi

O'zbekiston sharoitida yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasi va ijtimoiy himoyasi masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Konstitutsiyamizning "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"[3:88].

Iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni tarbiyalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi yurtimizda o'rnak olsa arzigulik tajriba to'planishiga imkon berdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iste'dodli yoshlarni izlash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar. Masalan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ayniqsa, ahamiyatga molikdir. Ta'kidlash joizki, ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorli sohalaridagi iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rahbatlantirib borish, ularning turli sog'lom tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifalari kurs ishimizning dolzarb vazifalaridan biri qilib belgilangan.

Tadqiqot ishining maqsadi shuki, har bir amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar huquqi kafolatlanishga nazariy jihatdan erishishdir. Uning vazifasi esa quyidagilar: O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunida yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olish, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga o'rganish va ular faoliyati tahlil qilinadi.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining "Inson qadri uchun" g'oyasini bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson-jamiyat davlat" degan yondashuvni konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, ushbu ta'moyil O'zbekiston xalqining barcha qatlamlari uchun birdek taaluqlidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq yoshlarga 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar kirib, bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning soni 9.6 milliondan oshmoqda, ya'ni mamlakatimiz aholisining 30 %ga yaqinini tashkil etmoqda.[3:91]

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 78-79-moddalari yoshlarga oid alohida normalar bilan to'ldirildi. Unga muvofiq:

-davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishiga, sog'liqni saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishiga, bandlik va dan olishlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi norma sifatida kiritildi.

Yoshlarni har tomonlama rivojlanishi, uchun ularga tegishli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratish bilan birga, ularni yangi ijtimoiy sharoitlarda yashashlari uchun zarur bo'ladigan ijtimoiy kompetentsiyalarni, ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishda pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlari, ushbu fanlarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda zamonaviy ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan bir qator metodologik yondashuvni hisobga olishni taqozo etadi. Ana shunday yondashuvlar sifatida

- tizimli yondashuv;
- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- aksiologik yondashuvlarni keltirish mumkin.

Tizimli yondashuv yoshlarda ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishni o'zaro bir-biri bilan aloqador yaxlit tizim sifatida talqin qilinib, yoshlar shaxsida ijtimoiy ta'lim bilan bog'liq yaxlit tasavvurlar shakllanadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv yoshlarning jamiyat, ta'lim muassasalari mahalla hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash orqali ularda snogen fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o'z huquqlaridan foydalanish ko'nikmalarini izchil rivojlantirib borish bilan birga, egallagan bilimlarini real ijtimoiy faoliyatda qo'llashga imkon yaratadi.[4:58]

ILMIY AXBOROT

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish natijasida, jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy buyurtma asosida fuqarolik tarbiyasini amalga oshirishni talab etadi. Ushbu jarayonda hamkorlikka asoslangan insonparvarlik pedagogikasidan foydalanishga alohida ehtiyoj yuzaga keladi. Aksiologik yondashuv yoshlarda ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda o'zini fuqaro sifatida burch va majburiyatlariga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish imkoniyatiga ega. Bu esa yoshlarning kelajakdagi faoliyatiga aksiologik munosabat orqali fuqarolik pozitsiyasini namoyon bo'lishiga erishish mumkin.

Shuni aytish kerakki, yuqorida sanab o'tilgan yondashuvlar ayrim holatda kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun ushbu yondashuvlarni o'zaro integratsiyalash orqali yoshlarni Yangi O'zbekiston sharoitiga moslashishi samaradorligini oshirish mumkin. Yangi davr yoshlarining ijtimoiy-pedagogik bilimlari, fuqarolik kompetensiyalarining o'ziga hos "me'yoriy o'lchovi" aniqlashtirilish dolzarb hisoblanib, uning shakllanishi oilada, ta'lim muassasalarida, mahallalarda izchil amalga oshirilishi kerak. Quyida yangi davr yoshlarining ijtimoiy-pedagogik vazifalari mazmunini tasnifiy tuzilishini berishga harakat qildik: -oilada ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, oilaning ta'limiy, tarbiyaviy salohiyatini oshirish, oila tarbiyasiga jamoatchilik tashkilotlarini jalb etish orqali pedagogik jihatdan muvaffaqiyatsiz oilalardagi yoshlarga differentsial yordam ko'rsatish. Ta'lim muassasalarida: Yoshlarni ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlash, ularni pedagogik va psixologik jihatdan qo'llabquvvatlash, ijtimoiy muammolarini o'z vaqtida aniqlab, maqsadli yordam ko'rsatish, kasb-hunarga, ilm-fanga, ijodga yo'naltirish orqali kasbiy, hayotiy ko'nikmalarini shakllantirib boorish.

Mikromuhitda: Yoshlarni bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etishga yordam berish, yoshlar va ularning oilalari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik loyihalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish, ilm-fan, sport, san'at, til o'rganish, AKT bo'yicha savodxonligini oshirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy tajribasini tashkillash, mahalla hayotida faol ishtirok etishlariga oid kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zotan, yangi rivojlanish bosqichining maqsadi ham iymon e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishdan iboratdir.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ya'ni 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot to'g'risida"gi Prezident Farmonida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda yoshlarning huquqlari, yerkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va zo'ravonlik g'oyalaridan himoya qilish, iste'dodli va iqtidorli yoshlarni qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish masalalariga e'tibor qaratadi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Yoshlar kelajagi" davlat dasturi, ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan yangi tizim "Yoshlar daftari"ning joriy etilishi, yoshlar muammolarini hal qilishga ko'maklashish uchun "Yoshlar jamg'armalari" tashkil etilishiga doir amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar ularni qiynayotgan muammolarni bevosita davlat darajasida ko'rib chiqish va hal etish imkonini ta'minlamoqda. [4:96]

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi yo'lida zamonaviy, qulay shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch-imkoniyatlarini ishga solmoqda. Maqsad Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, mamlakatimizni dunyoning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga chiqishi uchun tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Shu bilan bir qatorda yurtimizda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirish, yoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan islohotlarni amalga

o'shiring, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy kompetentsiyaga ega qilib tarbiyalash muammosi "Inson-jamiyat-davlat" degan yondashuvni tadbiq etish nuqtayi-nazaridan dolzarb bo'lib, jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror topishi, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi Toshkent. 2023
2. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi Toshkent-2023 128-b
3. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza.
4. Erkaboyeva, N. Sh. "FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES." Ученый XXI века 4-1 (2016): 36-39.
5. Erkaboeva, N. S., & Rahimberdiyeva, M. M. (2022). Features of Pedagogical Thoughts at a New Stage of Development of Uzbekistan. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 7, 53-58.
6. Erkaboyeva, N. S. (2016). FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES. Ученый XXI века, (4-1), 36-39.
7. Эркабоева, Н. "Янгиланган фикрларнинг моҳияти ва унинг устувор йўналишлари." Халқ таълими (2005): 19-20.